



**BOSHLANG'ICH SINIF INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIGA INTERFAOL
METODLAR ORQALI TIL O'RGATISH**

**Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika fakulteti
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Yuldasheva Umidaxon Maxmudovna**

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15225232>

Annotasiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda interfaol metodlarning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada interfaol metodlar, ya'ni o'quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi usullar (masalan, guruhli ishlash, ro'l o'ynash, o'yinlar va muammoli vazifalar) haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ingliz tili, o'qituvchi, interfaol metodlar, til o'rgatish, kommunikativ ko'nikmalar, motivatsiya, guruhli ish, o'yinlar.

Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish maqsadida so'nggi yillarda davlatimiz tomonidan xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha yaratilayotgan zarur sharoitlardan unumli foydalanayotgan yoshlar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Xorijiy tilni bilish hayotda o'z o'rnini topishda asosiy shartga aylanib ulgurdi. Hozirgi kunda yurtimizdagi ta'lim sohasini tubdan chet tillarga tadbiq qilish maqsadida taqdim etilayotgan darsliklar o'quv qo'llanmalari ham ayni shu maqsadning amaliy isbotidir. Binobarin o'z ona tilisiga qiziqqan va uni puxta o'rgangan o'quvchigina boshqa tillarga mehr qo'yib uni o'rgana oladi. Ayniqsa ilk maktab yoshidagi bolalar va yoshlar uchun qiziqarli mavzularda maqolalar chop etish hamda teleradiodasturlar tayyorlash, ommaviy axborot vositalarida chet tillarida tashkil etilayotgan dasturlar hajmini va ta'sirchanligini oshirish O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasiga tavsiya etildi. Ingliz tili o'qitishning samaradorligi, o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini uyg'otishda va ularni tilni o'rganishda faol ishtirok etishga undashda o'qituvchining metodik yondashuviga bog'liqdir. Bugungi kunda, boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatishda interfaol metodlarning qo'llanilishi samarali o'quv jarayonini tashkil etishga imkon yaratadi. Interfaol metodlar o'quvchilarga tilni faqat nazariy tarzda o'rganish bilan cheklanmay, uni real va amaliy kontekstda ishlatish imkoniyatini beradi. Boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchilariga interfaol metodlar orqali til o'rgatishning ahamiyati, asosiy tamoyillari va amaliy qo'llanilishi haqida so'z boradi.

Interfaol metodlarning mohiyati va ahamiyati-bu o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro faol muloqotga asoslangan o'qitish usullaridir. Bu metodlar o'quvchilarni o'zlarini o'rganish jarayoniga faol jalb etishga, ularda ijodiy va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Interfaol metodlar faqat o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotni qabul qilishni emas, balki o'quvchilarning tilni o'rganish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu metodlarning asosiy xususiyatlari o'quvchilarning:

-Faol ishtirok etishi – o'quvchilarning tilni faqat tinglash emas, balki unga faol ravishda ishtirok etish orqali o'rganishi;

-Shaxsiy tajriba – o'quvchilar tilni real vaziyatlarda ishlatish va o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi;

-O'zaro hamkorlik – guruhli va juftliklarda ishlash orqali o'quvchilar o'rtasida muloqot va hamkorlikni rivojlantirish.

Boshlang'ich sinfda ingliz tilini o'rgatishda interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarda tilni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi va ularning tilni samarali egallashlariga yordam beradi. Bu metodlar o'quvchilarni o'z bilimlarini amaliyotga tadbiq qilishga, o'rganilgan materialni eslab qolishga va yangi ma'lumotlarni yodlashda samarali usullarga ega bo'lishga undaydi. Interfaol metodlar turli xil pedagogik yondashuvlar va usullarni o'z ichiga oladi. Har bir metod o'zining maxsus tamoyillari va qoidalariga asoslanadi. Boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchilarining interfaol metodlarni samarali qo'llashida quyidagi asosiy tamoyillarni inobatga olish zarur:



Ko'p tajriba: O'quvchilarga o'rganilgan materialni ko'p marta qayta ishlash va turli faoliyatlar orqali mustahkamlash imkoniyatini yaratish kerak. Bu tajribalar o'quvchilarning tilni real vaziyatlarda ishlatish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Muloqotga asoslangan o'qitish: O'quvchilarni tilni o'rganishda faqat grammatika yoki lug'atni yodlash bilan cheklanmasdan, tilni real muloqotda ishlatishga undash lozim. Muloqotga asoslangan o'qitish, o'quvchilarga so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Hamkorlik: O'quvchilarning bir-birlari bilan muloqotda bo'lishi, birgalikda ishlash orqali tilni o'rganish jarayonini yanada samarali qilish mumkin. Guruhli va juftlikda ishlash o'quvchilarga o'zaro fikr almashish, tilni ishlatish va o'rganishda yordam beradi.

Interaktiv texnologiyalar: Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, interfaol o'qitish metodlarini yanada samarali qiladi. Multimedia materiallari, interaktiv taxta va onlayn o'quv resurslari yordamida o'quvchilarga yanada ko'proq vizual va audio-tasvirlar yordamida tilni o'rganish imkoniyatini yaratish mumkin. Boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchilari uchun interfaol metodlarning amaliy qo'llanilishi turli shakllarda bo'lishi mumkin. Quyida ba'zi usullarni ko'rib chiqamiz:

O'yinlar: O'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun samarali interfaol metod hisoblanadi. Ular o'quvchilarga tilni qiziqarli va jonli tarzda o'rganish imkoniyatini yaratadi. Masalan, "Hangman", "Memory" o'yini va "Simon says" kabi o'yinlar o'quvchilarga yangi lug'at va grammatikani o'rganishda yordam beradi. Rollarni o'ynash: O'quvchilarni turli rollarga kiritish va ularga ingliz tilida muloqot qilish imkoniyatini berish, tilni o'rganishning eng samarali usullaridan biridir. O'quvchilarni real hayotdagi vaziyatlarga, masalan, do'konda xarid qilish, restoranda buyurtma berish kabi rollarda ishtirok etish, tilni amaliy ravishda o'rganishga yordam beradi.

Lug'atni o'rganish orqali faoliyatlar: O'quvchilarga yangi lug'atni o'rganish uchun turli interfaol faoliyatlar yaratish mumkin. Masalan, so'zlarni aniqlash, ularni jumlada ishlatish yoki vizual tasvirlar orqali yangi so'zlarni o'rganish. Guruhli ishlar va muhokamalar: O'quvchilarni guruhlariga bo'lish va ular bilan ingliz tilida muhokama qilish, ularni tilni faqat o'rganish emas, balki amaliyotda qo'llashga undaydi. Masalan, guruhlariga ingliz tilidagi qisqa hikoyalar berilib, ularni baholash va bahs-munozara qilish mumkin. Boshlang'ich sinf ingliz tili o'qituvchilari uchun interfaol metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarni til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi va ularning tilni samarali egallashlariga yordam beradi. Bu metodlar o'quvchilarga nafaqat tilni nazariy tarzda, balki amaliy va real kontekstda o'rganish imkoniyatini yaratadi. O'qituvchilar interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishi, muloqotda faollikni ta'minlashi va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilarni guruhli ishlash va turli faoliyatlarda qatnashishga undash, ular o'rganayotgan tilni samarali ishlatishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 2012 y.
2. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. "English Language Teaching methodology". –T.: 2015.
3. U.M.Yuldasheva. "Maktabgacha ta'limda chet tillarini o'qitish" Darslik. A.2023